

WEB TEXNOLOGIYALARI FANIGA KIRISH VA UNING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Nazarova Nigina

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti
biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Sherdanov Akbar

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti
biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada web texnologiyalari faniga kirish va uning asosiy tushunchalari hisoblangan web-sahifa, web-sayt, web server, belgilash tillari haqida ma'lumotlar to'planib hamda "Klient-server" texnologiyasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: web-sahifa, web-sayt, web-server, texnologiya, Klient-server, dasturlash, skript, interaktiv, ssenariy, resurs, makros

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va inson faoliyatning deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Bugungi kunda axborotlarni elektron ko'rinishda saqlashni va jamlashni tashkil qilish unchalik murakkab ish emas. Xatto Internet texnologiyalarini qo'llab yer sharining ixtiyoriy nuqtasidagi elektron arxivdan foydalanishni tashkil qilish mumkin.

Biz internet tarmog'idagi Web sahifalarni ko'rishimiz uchun WWW (World Wide Web) deb ataluvchi internet xizmatidan foydalanamiz.

Web-sahifa (inglizcha Web page, web brauzer yordamida kirish mumkin bo'lgan World Wide Web hujjati yoki axborot resursi. Web sahifalar odatda HTML yoki XHTML belgilash tillarida yoziladi va boshqa sahifalarga tezda o'tish uchun giperhavolalarni o'z ichiga olish mumkin.

Web-sahifadagi ma'lumotlar turli shakllarda taqdim etilishi mumkin.

- Matn
- statik va animatsion grafiklar
- audio
- video
- appletlar

Web-sahifaning axborot tarkibi odatda bitta web-serverda joylashgan bir nechta web sahifalar web saytni tashkil etadi.

Sayt (inglizcha website: web-tarmoq va site- "joy", so'zma-so'z "tarmoqdagi joy")- bitta manzil (domen nomi yoki IP manzil) ostida birlashtirilgan shaxsiy yoki tashkilotning kompyuter tarmog'idagi elektron hujjatlari to'plami.

Web-server – bu mijozlardan, odatda web-brauzerlardan HTTP so'rovlarini qabul qiladigan va odatda HTML sahifasi, rasm, fayl, media oqimi yoki boshqa ma'lumotlar bilan birga HTTP javoblarini chiqaradigan server. Web-serverlar Word Wide Web

tarmog'ining asosidir. Web tarmoqqa ulangan kompyuter yoki undagi dastur hisoblanib, umumiy resurslarni mijozga taqdim etish yoki ularni boshqarish vazifalarini bajaradi. Web-serverlar ma'lumotlarni bir-biriga moslashtiradi. Web-serverda Web-sahifa va Web saytlar saqlanadi.

Foydalanuvchi sahifaga so'rov yuborganda, chaqirilgan sahifa avval serverda qayta ishlanadi va shundan keyingi tarmoq orqali tashrif buyuruvchiga fayl sifatida qaytariladi. Bu fayl kengaytmalari quyidagicha bo'lishi mumkin. HTML, PHP, ASP, PERL, SST, XML, DHTML, XHTML.

GML-bu makroslar to'plami bo'lib, ularning asosiy maqsadi matnni bezash uchun teglardan foydalanadigan belgilashni amalga oshirishdir.

SGML-bu hujjat belgilash tillarini aniqlash uchun meta til. SGML turli ilovalar tomonidan foydalanish uchun ko'plab sintaktik belgilash variantlarini taqdim etadi.

HTML – bu web-sahifalarni yaratish va nashr qilish uchun World Wide Web tomonidan qabul qilingan til.

Web-sahifalar sahifa mazmunining haqiqiy matnini va teglar yoki HTML belgilash teglari deb ataladigan formatlash buyruqlarini o'z ichiga olgan matnli fayllardir. HTML kod brauzer tomonidan talqin qilinadi, u web sahifaning formatlashgan mazmunini ekranda aks ettiradi.

PHP texnologiyasi Rasmus Ledorf tomonidan 1994-yilning kuz oylarida yaratilgan. PHP samaradorligi yuqori bo'lgan Web sahifalar yaratishda yuqori natija beruvchi yagona texnologiyadir. U bir kunda milliondan ortiq murojaatlarga xizmat qila oladi. PHPda skriptlarni yaratish va sozlash boshqa dasturlash tillariga qaraganda osonroqdir.

Web-dasturlash texnologiyalarini, dasturlarini asosan ikkita qismga ajratish mumkin: klient tomonidagi dasturlarlash (client-site) va server tomonidagi (server-side).

Ushbu texnologiyalarni tushunish uchun avvalo, bevosita "klient-server" texnologiyasini tushunish kerak. Web-sahifaning interaktiv dasturi ssenariy deb ataladi. Bundan atama dasturning natijasiga bog'liq holda vujudga kelgan. Uning asosiy vazifasi Web-sahifasida foydalanuvchi holatiga, harakatiga "reaksiya" berishdir. Shu tariqa ssenariylar klient tomonidan bajariluvchi va server tomonidan bajariluvchi sseneriylarga bo'linadi. Klient tomonidan bajariluvchi sseneriylar brauzer yordamida bajariladi. Server tomonida bajariluvchi ssenariylar esa Web -server yordamida bajariladi.

Xulosa qilib aytganda, web texnologiyalarining asosiy tushunchalari hisoblangan web- sahifa, web-sayt, web-server haqida ma'lumotlar berildi.Undan tashqari belgilash tillarining asosiylariga ta'riflar berildi, hamda "klient-server texnologiyasi haqida ma'lumot berib o'tildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Web texnologiyalari – Boymuradov A.X, Allamova Sh. Sh. Chirchiq-2023
2. Web texnologiyalari – Aripov. M, Dottoyev. S, Fayziyeva. M O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent -2013

